



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI**

2025-yil 14-avgust

515-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimligi

### **Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi 03/23-3-16621-sonli xatini inobatga olib, Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 21-1-moddasiga asosan,

### **Q A R O R   Q I L A M A N:**

1. Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Toshkent viloyati va barcha tuman-shaharlar hokimlari:

uch ish kuni ichida tegishli byudjetlarning byudjet so‘rovlarini tuzish hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash to‘g‘risida qarorlar qabul qilishni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda tegishli Davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish davomida hisobga olishni;

shahar va barcha tumanlar mahalliy byudjetlarining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tegishli Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tomonidan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga 2-ilovaga muvofiq belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta’minlasin.

3. Viloyatning viloyat byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda tegishli Davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish davomida hisobga olishni;

2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini 3-ilovaga muvofiq Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

4. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 85, 90<sup>2</sup>-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligidan taqdim etiladigan 2026—2028-yillar uchun Davlat byudjeti loyihasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan O‘rta muddatli byudjetni tayyorlash bo‘yicha yagona uslubiy qo‘llanma hamda Toshkent viloyat mahalliy byudjetining 2026-yilgi mahalliy byudjetiga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdori va obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar bo‘yicha xarajatlarning cheklangan miqdori mablag‘lariga muvofiqlashtirilsin.

5. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Jurayev)ga:

tegishli byudjet loyihalarini tayyorlash uchun shahar va tumanlar hokimliklariga hamda byudjet so‘rovlarini tuzish uchun viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilariga byudjet so‘rovini tuzish tartibini yuborish;

byudjet kodeksining 93-moddasiga asoslanib, viloyat ishchi guruhi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda, viloyat mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini joriy yilning **11-avgust kuniga qadar**, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Ishchi guruhi rahbari (O.Tursunov):

Toshkent viloyati va barcha tuman-shaharlar hokimlari Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzishda:

xarajatlar bo‘yicha – viloyat, shahar va tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet so‘rovlari

hamda shahar va tumanlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

viloyat mahalliy byudjeti loyihasini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmasligini nazarda tutsin.

7. Toshkent viloyati soliq boshqarmasi (A.Inagamov):

shahar va tumanlar bo'yicha 2026-yil uchun Toshkent viloyat byudjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda:

Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda soliq organlari va hokimliklar (bo'limlari), viloyat, shahar va tumanlar boshqaruvi organlarining bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida shahar va tumanlar hamda soliq turlari kesimida ishlab chiqib, viloyat hokimligiga joriy yilning **8-avgust kuniga qadar**, taqdim etilishini ta'minlasin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati**  
**hokimi**



**Z.Mirzayev**

Toshkent viloyati hokimining  
2025-yil 14-avgustdagi  
515-10-0-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

**Toshkent viloyati mahalliy byudjetining 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va  
2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston  
Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini  
muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi**

**T A R K I B I**

1. O.Tursunov - Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2. N.Jurayev - viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3. A.Inagamov - viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari

**Ishchi guruhi a‘zolari:**

4. Sh.Burxonov - viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i
5. T.Arzikulov - viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
6. Z.Yo‘ldoshev - viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i
7. A.Mirzayev - viloyat Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i
8. Lavozimga ko‘ra - viloyat hokimligi sanoatni rivojlantirish, iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha kotibiyati mudiri, ishchi guruhi kotibi

\* Ishchi guruhi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan hollarda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Toshkent viloyati hokimining  
2025-yil 14-avgustdagi  
515-10-0-Q/25-son qaroriga  
2-ilova

**Toshkent viloyati va barcha tuman-shaharlar mahalliy byudjetlarining  
2026-yil uchun byudjet so‘rovi va 2027—2028-yillar uchun byudjet  
mo‘ljallarini shahar va tumanlar Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tomonidan  
viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish**

**MUDDATLARI**

|     |                        |   |                   |
|-----|------------------------|---|-------------------|
| 1.  | Olmalik shahri         | - | 8-avgust 2025-yil |
| 2.  | Angren shahri          | - | 8-avgust 2025-yil |
| 3.  | Ohangaron shahri       | - | 8-avgust 2025-yil |
| 4.  | Bekobod shahri         | - | 8-avgust 2025-yil |
| 5.  | Chirchiq shahri        | - | 8-avgust 2025-yil |
| 6.  | Yangiyo‘l shahri       | - | 8-avgust 2025-yil |
| 7.  | Ohangaron tumani       | - | 8-avgust 2025-yil |
| 8.  | Bekobod tumani         | - | 8-avgust 2025-yil |
| 9.  | Oqqo‘rg‘on tumani      | - | 8-avgust 2025-yil |
| 10. | Bo‘stonliq tumani      | - | 8-avgust 2025-yil |
| 11. | Bo‘ka tumani           | - | 8-avgust 2025-yil |
| 12. | Yuqori Chirchiq tumani | - | 8-avgust 2025-yil |
| 13. | Quyi Chirchiq tumani   | - | 8-avgust 2025-yil |
| 14. | Zangiota tumani        | - | 8-avgust 2025-yil |
| 15. | Qibray tumani          | - | 8-avgust 2025-yil |
| 16. | Parkent tumani         | - | 8-avgust 2025-yil |

|            |                       |   |                   |
|------------|-----------------------|---|-------------------|
| <b>17.</b> | Piskent tumani        | - | 8-avgust 2025-yil |
| <b>18.</b> | O'rta Chirchiq tumani | - | 8-avgust 2025-yil |
| <b>19.</b> | Toshkent tumani       | - | 8-avgust 2025-yil |
| <b>20.</b> | Chinoz tumani         | - | 8-avgust 2025-yil |
| <b>21.</b> | Yangiyo'l tumani      | - | 8-avgust 2025-yil |
| <b>22.</b> | Nurafshon shahri      | - | 8-avgust 2025-yil |

Toshkent viloyati hokimining  
2025-yil 14-avgustdagi  
515-10-0-Q/25-son qaroriga  
3-ilova

**Viloyatning viloyat byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet  
mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2026-yil uchun byudjet so‘rovi va  
2027—2028-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini Toshkent viloyati Iqtisodiyot  
va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish**

**MUDDATLARI**

- |                                                                                 |                      |
|---------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
| 1. Toshkent viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi                  | - 8-avgust 2025-yil  |
| 2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining viloyat hududiy boshqarmasi | - 8-avgust 2025-yil  |
| 3. Toshkent viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi                              | - 8-avgust 2025-yil  |
| 4. Toshkent viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi                            | - 8-avgust 2025-yil  |
| 5. Toshkent viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi                              | - 8-avgust 2025-yil  |
| 6. Toshkent viloyati Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi                    | - 8-avgust 2025-yil  |
| 7. Toshkent viloyati Transport boshqarmasi                                      | - 18-avgust 2025-yil |
| 8. Toshkent viloyati Tabiat resurslari boshqarmasi                              | - 8-avgust           |

|     |                                                                                                                |                      |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
|     |                                                                                                                | 2025-yil             |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 9.  | Toshkent viloyati O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi                                                                 | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 10. | Toshkent viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi                                    | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 11. | Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 12. | Toshkent viloyati Davlat aktivlarini boshqarish agentligi                                                      | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 13. | Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi                                      | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 14. | Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik boshqarmasi                                             | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 15. | Toshkent viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi                                                 | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 16. | Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi                                                                           | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 17. | Toshkent viloyati hokimligi                                                                                    | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 18. | Xalq deputatlari viloyat Kengashi                                                                              | - avgust<br>2025-yil |
|     |                                                                                                                | 8-                   |
| 19. | Toshkent viloyati saylov komissiyasi                                                                           | - 8-                 |

|     |                                                                                                                       |                        |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
|     |                                                                                                                       | avgust<br>2025-yil     |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 20. | Toshkent viloyati iqtisodiyot moliya bosh boshqarmasi                                                                 | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 21. | Toshkent viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi                                                                    | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 22. | Byudjetdan tashqari Pensiya boshqarmasi Toshkent viloyati boshqarmasi                                                 | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 23. | Toshkent viloyati Ma’naviyat va ma’rifat markazi                                                                      | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 24. | O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi                                      | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 25. | O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilik rivojlantirish qo‘mitasining Toshkent viloyati hududiy bo‘limi | - 8 avgust<br>2025 yil |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 26. | O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati bo‘limi                        | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 27. | O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi Toshkent viloyati bo‘limi                                          | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 28. | Yoshlar siyosati va sport vazirligining viloyat hududiy boshqarmasi                                                   | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 29. | Oila va xotin-qizlar viloyat hududiy boshqarmasi                                                                      | - avgust<br>2025-yil   |
|     |                                                                                                                       | 8-                     |
| 30. | Boshqa tashkilotlar                                                                                                   | - avgust               |

